

ISESCONING FAN VA MADANIYAT SOHASIDAGI TASHABBUSLARI**To'ychiyeva Mahfuza Anvarjon qizi**

Namangan davlat universiteti Tarix mamlakatlar va mintaqalar
yo'nalishi 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Islom dunyosidagi fan, ta'lim va madaniyat tashkiloti ICESCOning fan va madaniyat sohasidagi tashabbuslari, dasturlari va ularning natijalari tahlil qilinadi. Maqola 2025-yilgacha bo'lgan rasmiy manbalar va konfrensiya materiallari, ilmiy axborotnomalarga tayangan.

KALIT SO'ZLAR: (Organization Of Islamic Cooperation, Marokash, Moliyaviy Shaffoflik, Kelajak Maktablari, Raqamli Savodxonlik, Koinot Texnologiyalari, Sun'iy Intellekt Etikasi, Raqamli Arxiv, "Yashil" Islom Olami, Mintaqaviy Vakolatxona, Jidda Konferensiyasi, Intellektual Tiklanish.

ANNOTATION: This article analyzes the initiatives, programs and results of the Islamic World Organization for Science, Education and Culture (ICESCO) in the field of science and culture. The article is based on official sources, conference materials and scientific newsletters up to 2025.

KEYWORDS: (Organization Of Islamic Cooperation, Morocco, Financial Transparency, Schools of the Future, Digital Literacy, Space Technologies, Ethics of Artificial Intelligence, Digital Archive, "Green" Islamic World, Regional Office, Jeddah Conference, Intellectual Revitalization

KIRISH

Islom dunyosida ilm-fan va madaniyat asrlardan buyon ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bo'lib kelgan. Tarixiy jarayonlar davomida Islom mamlakatlari nafaqat ilmiy kashfiyotlar, balki madaniy merosni yaratish va saqlash

borasida ham katta hissalar qo‘shgan. Zamonaviy davrda esa global hamkorlik, xalqaro tashkilotlar va texnologik rivojlanish orqali ilm-fan va madaniyat sohasidagi jarayonlar yangi bosqichga ko‘tarildi[1].

ICESCO (Islamic World Educational, Scientific and Cultural Organization) islom mamlakatlarini birlashtiruvchi, madaniy va ilmiy hamkorlikni rivojlantiruvchi platforma sifatida muhim rol o‘ynaydi. ICESCOning asosiy maqsadi — islom dunyosida ta’lim, ilm-fan va madaniyat sohasidagi standartlarni oshirish, ilmiy tadqiqotlar, madaniy merosni saqlash va innovatsion dasturlarni ilgari surishdir[2].

IHT -OIC (Organization of Islamic Cooperation) islom mamlakatlari o‘rtasida ilm-fan va madaniyat sohasida strategik dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu dasturlar yosh olimlar va talabalarga ilmiy platformalar yaratish, xalqaro konferensiyalar va madaniy tadbirlarni tashkil etish, shuningdek, madaniy merosni saqlash va rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi[3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI(RESEARCH METHODOLOGY)

Dunyo miqyosida deyarli 2 mlrd odam mavjud bo‘lgan 57 ta davlatni birlashtirgan IHT (Islom hamkorlik tashkiloti) 1969 yil 25 sentyabrda Marokash poytaxti Robotda o‘tkazilgan islom davlatlari rahbarlarining birinchi yig‘ilishida tashkil etilgan. IHT qarorgohi Saudiya Arabistonining Jidda shahrida joylashgan. Dastlab Islom konferentsiyasi tashkiloti (IKT) deb yuritilgan ushbu xalqaro tashkilot hozirgi nomini 2011 yilda olgan[4]. IHTda ingliz, arab va frantsuz tillari rasmiy ish tili hisoblanadi.

O‘zbekiston 1995 yil oktyabr oyida mazkur tashkilotga kuzatuvchi, 1996 yil 2 oktyabrdan boshlab to‘laqonli a‘zo sifatida qabul qilingan. 2016-yil 18-19-oktabr kunlari Toshkentda “Ta’lim va ma’rifat – tinchlik va ijodkorlik sari yo‘l” shiori ostida Islom hamkorlik tashkiloti (IKT) Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasiga mezbonlik qildi. O‘zbekiston Vazirlar kengashining keyingi 44-sessiyasigacha Vazirlar kengashi raisi vazifasini rasman o‘z zimmasiga oladi[5]. Bu uchrashuvda prezident SH. Mirziyoyev rasman nutq so‘zlab konfrensiya nomini “Education and Enlightenment path to peace and creativity” ya’ni Ta’lim va aniqlik tinchlik va bunyodkorlik uchun yo‘l” deb shiorga

aylantiradi. Bir yil davomida O'zbekiston rahbarlik qilgan bu datur asosida mamlakatlarda innovatsiya va fanni rivojlantirish, mintaqaviy hamkorlik va tinchlikni o'rnatish dasturlari bo'yich ishlar olib boriladi[6].

2025-yil iyun oyida O'zbekiston Islom hamkorlik tashkiloti (IKHHK)ning Inson huquqlari bo'yicha mustaqil doimiy komissiyasining (IPHRC) to'laonli a'zosi etib saylandi, bu unga Islom dunyosida qonunchilikni rivojlantirish va inson huquqlariga asoslangan boshqaruvga ta'sir ko'rsatish imkonini berdi. Tashkilot oldiga qo'ygan birinchi maqsadlar:

- Musulmon mamlakatlarini siyosiy va iqtisodiy jihatdan birlashtirish;
- Ta'lim va ilmiy hamkorlikni rivojlantirish;
- Madaniyat, meros va ilm-fan sohalarida integratsiyani kuchaytirish;

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULT)

ISESCO islom olamining ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (ISESCO) 1979-yilda tashkil etilgan. Islom hamkorlik tashkilotiga aloqador ixtisoslashgan xalqaro tashkilot bo'lib, asosiy e'tiborni a'zo davlatlar o'rtasida ta'lim, fan va madaniyat sohalarida hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan. madaniy merosni muhofaza qilish va innovatsiyalarni rivojlantirish. Uning shtab-kvartirasi Marokashning Rabat shahrida joylashgan. oktor Salem bin Muhammad Al-Malik 2018 yildan buyon Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Islom tashkiloti (ISESCO) Bosh direktori lavozimida ishlab kelmoqda. U ta'lim va ilm-fan sohasida katta tajribaga ega va tashkilot a'zolari o'rtasida hamkorlikni kengaytirish ustida ish olib boradi.

Azo davlat Afrika hududidan(17), Arab davlatlaridan (21), Osiyo hududidan (13) va Lotin Amerikasidan (2 ta Gayana ,Surinam) davlatlatlarini o'z ichiga oladi.Bosqichma bosqich amalga oshiradigan islohot yo'nalishlari dasturi ISESCO ning 2022-2025-yillarga mo'ljallangan yo'l xaristasida ko'rib chiqiladi[7].

INSTITUTIONAL ISLOHOTLAR

2026-yilda ICESCO bosh direktori Dr. Salim M. Al Malik rahbarligida (2018-yildan beri shu lavozimdagi)"Aqlli boshqaruv" tizimi to'liq joriy etilishi

- **Moliyaviy shaffoflik:** Donorlik jamgʻarmalari va xususiy sektor bilan hamkorlik 40% ga oshirilishi.
- **Kuzatuvchi maqomi:** Tashkilotga aʼzo boʻlmagan davlatlar (masalan, Rossiya, Braziliya, Germaniya kabi davlatlarning ilmiy markazlari) bilan hamkorlik kengayishi

TA'LIM SOHASIDAGI INQILOB

"Kelajak maktablari" loyihasi doirasida:

- **Raqamli savodxonlik:** 2026-yilgacha 2 million oʻqituvchini raqamli koʻnikmalarga oʻrgatish dasturi yakunlanishi.
- **Ta'lim sifati:** ICESCO ta'lim sifatini baholash boʻyicha oʻzining xalqaro standartlarini joriy etdi.
- **Arizalar qabuli:** 2026-yil 20-martgacha davom etadigan hamda ICESCO mukofoti ta'lim sohasidagi eng yaxshi innovatsiyalarni ragʻbatlantiradi.

FAN VA INNOVATSIYALAR

2026-yilda ICESCO fan boʻlimi (Science and Technology Sector) quyidagi yoʻnalishlarni ustuvor deb bildi:

- **Koinot texnologiyalari:** "Koinot – kelajak poydevori" shiori ostida yosh kosmonavtlar tayyorlash markazlari ochildi.
- **Sun'iy Intellekt etikasi:** Islom qadriyatlari va AI texnologiyalari uygʻunligi boʻyicha xalqaro deklaratsiya qabul qilindi.[8]

MADANIY MEROSNI SAQLASH

ICESCO Meros Markazi (ICHC) 2026-yilda "Madaniyat – barqarorlik garovi" tamoyilini ilgari surmoqda.

- **Raqamli arxiv:** Islom olamidagi 100 000 dan ortiq nodir qoʻlyozmalar raqamlashtirildi.
- **Meros roʻyxati:** 2026-yilgi Jidda konferensiyasida Islom olami merosi roʻyxatiga yana 50 ta yangi obʼekt qoʻshilishi tasdiqlanadi.

"YASHIL" ISLOM OLAMI

Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash:

- **Yashil shaharlar:** A'zo davlatlarda 100 ta "Ekologik toza shahar" modelini yaratish dasturi.
- **Suv diplomatiyasi:** Markaziy Osiyo va Afrika uchun suvni tejashning innovatsion texnologiyalari.

YOSHLAR VA XOTIN-QIZLAR

- **Lider ayollar:** ICESCO qoshidagi "Xotin-qizlar yili" natijalari tahlil qilinib, 2026-yilda "Ayollar va fan" doimiy kengashi tuziladi.
- **Yoshlar amaliyoti:** 2025–2026-yillarga mo'ljallangan Professional Treyning Program doirasida 11 davlatdan kelgan mutaxassislar Rabotdagi qarorgohda tajriba oshirmoqdalar.

O'ZBEKISTON BILAN HAMKORLIK

O'zbekiston ICESCO uchun Markaziy Osiyodagi asosiy strategik sherik:

- **Toshkent – Islom madaniyati poytaxti:** O'tgan yillarda orttirilgan tajriba asosida, 2026-yilda O'zbekistonda "Islom sivilizatsiyasi markazi" bilan hamkorlikda yirik xalqaro forum o'tkaziladi[9].
- **Mintaqaviy vakolatxona:** O'zbekiston hukumati va ICESCO o'rtasidagi Toshkentda vakolatxona ochish bo'yicha yakuniy hujjatlar imzolanishi kutilmoqda.

2026-YILGI JIDDA KONFERENSIYASI

15-Bosh konferensiya (2026-yil yanvar, Saudiya Arabistonida):

Ushbu tarixiy yig'ilishda:

- **"Intellectual tiklanish" strategiyasi:** 2026–2036-yillarga mo'ljallangan islom dunyosining yangi ilmiy uyg'onish davri xaritasi tasdiqlanadi.
- **Budjetni optimallashtirish:** Keyingi 3 yillik moliyaviy reja qabul qilinadi.

XULOSA

ICESCO 2026-yilgacha bo'lgan muddatda zamonaviy fan va islomiy qadriyatlarni birlashtiruvchi ko'priikka aylandi. Tashkilotning faoliyati faqat a'zo davlatlar bilan cheklanib qolmay, insoniyatning umumiy muammolarini (iqlim, ta'lim, kambag'allik) hal qilishga qaratilgan. "Intellectual tiklanish" yo'l xaritasi islom olamini global innovatsiyalar markaziga aylantirish uchun mustahkam poydevor bo'ldi. Buning tobora safi kengayib boryotganligini u boshchiligidagi tinimsiz izlanishlar va loyihalar dasturi orqali bilib olishimiz mumkin. Balkim aynan uning ta'sir doirasida O'zbekistonning 2026-yilgi dastur doirasidan kosmonavtika sohasiga qiziqsh vae'tibor qaratilishi bilan ham izohalsh mumkin[10].

O'zbekistonning xalqaro miqyosda dunyo davlatlari tomonidan yanada nufuzini oshiruvchi loyihalarga boshchilik qilishi yildan yilga jahon hamjamiyati tomonidan tan olinib kelinmoqda. Jumladan Oz'bekistonni "Markaziy Osiyo lokomotivi" deb ham baholandi.

UNESCO tomonidan Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlaridagi restavratsiya ishlari hamda nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining himoya qilinishi jahon miqyosida tan olingan. **ICESCO** tashkiloti tomonidan esa O'zbekistonni "**Islom ma'rifati markazi**" deb tan olindi. 2026-yilda mamlakatda yirik ilmiy forumlar o'tkazilishi dunyo musulmon olimlarining diqqat markazida turishi yurtimizning keng strategik dasturining dalili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR RO'YXATI:

ICESCO. Charter and Basic Documents. Rabat, 2019.

ICESCO. Annual Report. Rabat, 2020–2023.

Islom hamkorlik tashkiloti. Rasmiy hujjatlar. Jidda, 2018.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Toshkent, 2017.

ICESCO Organizes Regional Conference on Greening Education in Baku, ICESCO, 25 Oct 2025.

ICESCO Continues Organizational Restructuring, ICESCO, 2025.

Samarkand Launched as Capital of Culture in the Islamic World 2025, ICESCO, 27 May 2025.

<https://www.oictoday.biz/news/category/country/20-years-of-sprightly-membership-in-the-organisation-of-islamic-cooperation>

ICESCO, Strategic Study for Cultural Heritage, 2025

<https://lex.uz/uz/docs/-6102462>

.